

JORIY NAZORATNI BAHOLASHDA MULTIMEDIA TEXNOLOGIYALARINI JORIY ETISHNING AFZALLIKLARI

XODJIMURATOVA
MALIKA VALIYEVNA,
Muhammad al-Xorazmiy
nomidagi TATU
Chet tillar kafedrasi
assistenti

[https://doi.org/10.47689/STARS.
university-pp212-215](https://doi.org/10.47689/STARS.university-pp212-215)

Annotatsiya: Maqola ingliz tilini o'qitish samaradorligini oshirishda multimedia texnologiyalarining ahamiyatiga bag'ishlangan. Muallif inson hayotining har bir jahbasi, jumladan, fan, axborot, texnologiyalarni muhokama qiladi. Hattoki ta'limgohasida ham texnologik o'zgarishlar yangi sahifani boshlagani borasida fikrlar aytildi. An'anaviy o'qitish usullari o'quvchilarga katta ta'sir ko'rsatmaydi. Bundan tashqari, ushbu maqolada baholash jarayonida multimedia texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlarining dolzarb muammosi yoritilgan. Maqolada ijtimoiy masofaning ahamiyati va www.kahoot.com saytining afzalliklari haqida ma'lumot berilgan.

Kalit so'zlar: multimedia texnologiyalari, joriy nazorat, baholash, pandemiya.

2020-yil inson hamjamiyati tarixidagi eng murakkab yillardan biri bo'ldi, desak mubolag'a bo'lmaydi. 2019-yil dekabr oyida Xitoyning Uxan provinsiyasida paydo bo'lgan koronavirus qisqa fursatda keng quloch yoyib, insoniyat turmush tarzini butkul o'zgartirib yubordi. Ketma-ket karantin tadbirlari, o'zgargan ish uslublari va tinimsiz ortib borayotga xavf-xatarlar har bir sohani tubdan isloh etishni talab etmoqda. "Bu o'ta muhim favqulodda choralarni talab etuvchi o'ta muhim favqulodda vaziyat bo'lib, biz butun dunyo hamjamiyati, xususan, jismoniy shaxslar, korporatsiyalar, fondlar, hukumatlar va boshqa tashkilotlarni birdamlikka chaqiramiz", - deb ta'kidlaydi YUNICEFning ijrochi direktori Genrietta For.

O'rnatilgan karantin chora-tadbirlari mamlakatlarning deyarli barcha sohalarida o'ziga xos sinov bo'ldi. Shu jumladan, O'zbekiston Respublikasi Maxsus Komissiyasi qaroriga muvofiq, mamlakatimizdagi barcha ta'limgohassalarida 2020-yil 1-apreldan boshlab masofadan turib faoliyat olib borildi va 2019 – 2021 o'quv yili masofaviy tarzda yakunlandi. Deyarli 7 oy davom etgan karantin chora-tadbirlari natijasi o'laroq kuz oylariga kelib, mamlakatimizda koronavirusning tarqalish ko'lami nazoratga olindi va bosqichma-bosqich ta'limgohassalarini faoliyatini an'anaviy tarzda davom ettirishga ruxsat berildi. O'z navbatida, mutaxassislar kasallik tarqalish tezligi jilovlandi, degani kasallik butkul yo'q bo'ldi, degani emasligini qayta-qayta takrorlab, fuqarolarni ehtiyyot choralarini ko'rishga chorlashmoqda. "Takror aytaman, kasallik bizga kirib kelmabdi, deya xotirjamlikka berilish, himoya va gigiyena qoidalarini unu-


tish to'g'ri emas. Ehtiyyot choralari hamon amalda", – dedi Nurmat Otabekov OAV muxbirlari bilan suhabatda. Shuning uchun ham sohalardagi faoliyat qayta tiklangani bilan ehtiyyotkorlik choralarini ko'rish uchun ish uslublari ayrim jabhalarda qisman, ayrimlarida esa butkul yangilanishlarni talab etmoqda.

Oliy ta'lif muassasalaridagi o'quv jarayonida ham pedagog-o'qituvchilar talabalar hamda o'z sog'iqlariga ziyon yetkazmaydigan yangi metod va uslublar yordamida ta'lif sifatini oshirishga intilib kelmoqdalar. Yaxshi ma'lumki, o'qituvchilar o'tilgan mavzuni turli usullardan foydalangan holda talabalar bilim, ko'nikmalarini baholab boradilar. Kichik test, yozma mashqlar yoki savol-javoblar shular jumlasidandir. Ammo imkon qadar o'zaro yaqin aloqani cheklash talab etilayotgan bugungi dolzarb vaziyatda o'zaro qog'oz ayirboshlash virus tarqalishiga olib kelishi mumkin. Til - bu inson hayotining ko'zgusidir. Zero, u inson shaxsiyatini bildiruvchi omildir. U go'yoki axborot olamini jamlovchi kosmik stansiyaga o'xshaydi. AKT inson hayotining ajralmas bir qismiga aylanib ulgurgan bir zamonda, ingliz tili ham o'ziga xos xususiyatlari va afzalliklari bilan global tus oldi. Bir so'z bilan aytganda, u olam ko'zgusiga aylandi. Ingliz tili nafaqat Buyuk Britaniyaning, balki Kanada, AQSH, Yangi Zelandiya kabi ko'plab mamlakatlarning ona tilidir. Qolaversa, u Nigeriya, Gana kabi ko'plab mamlakatlarda ikkinchi til sifatida ham ishlataladi.

Ingliz tili dunyo xalqlari orasida biznes va o'zaro aloqalar uchun qulay vositaga aylandi. Bundan tashqari, tibbiyot, muhandislik, ta'lif, san'at va huquq, musiqa kabi har qanday sohada ingliz til hamda zamonaviy kommunikatsiya texnologiyalarining roli katta.

Har qanday sohada bo'lgani kabi ta'lif sohasiga AKTning kirib kelishi sohamizdagi tub burilishga sabab bo'ldi. O'qitishning an'anaviy usullari o'quvchilarga u qadar ham katta ta'sir ko'rsatmas edi. Texnologiya o'quvchilarning yangilikka bo'lgan ishtiyoqini oshirdi, ularning o'qishga bo'lgan shijoatini uyg'otdi. Natijada, ingliz tilini qo'shimcha til sifatida o'rganuvchilar bugungi kunda bemalol mahalliy inglizlar bilan raqobatlasha olmoqdalar.


Bu vaziyatda biz joriy baholash uchun AKTdan foydalangan holda qiziqarli interaktiv metodni tavsiya qilamiz. Demak, bizga sifatli internet aloqasi, proyektor va kompyuter kerak bo'ladi(1-rasm).



1 – rasm.

Dastavval, o'qituvchi www.kahoot.com saytida ro'yxatdan o'tib, o'z profiliga ega bo'lishi kerak. Mazkur sayt masofadan turib, o'quv jarayonlarini tashkil etishning qulay vositasidir. "Biz qachon va qayerda bo'lishingizdan qat'i nazar, bilim olishingiz uchun hech qanday cheklolvar bo'lmasisligi kerak, deb hisoblaymiz. Ta'lif muassasa-sidan tashqarida bo'lgan paytingizda ham o'quvchilarni bilim olishga jalb qiling...",

deya barchani qanday sharoit bo'lishidan qat'i nazar, sifatli ta'lrim jarayonini tashkil-lashtirishga undaydi sayt tashkilotchilari. Nafaqat masofaviy ta'lrim jarayonida, balki ushbu saytning ko'pgina qiziqarli funksiyalarini auditoriyaga olib kirib ham o'zaro masofani cheklagan holda mashg'ulotlarni interaktiv tarzda tashkil etish mumkin. Ayniqsa, onlayn viktorinalar, musobaqalar uyushtirish o'quvchilarning fanni o'zlash-tirishga bo'lgan ishtiyorqini yanada oshirishga xizmat qiladi. O'qituvchidan talab etiladigani faqatgina mavzu yuzasidan mustahkamlash uchun beriladigan turli vazifa-larni saytdagi o'z profilida viktorina savollar ko'rinishida tashkillashtirishdan iborat. Dars jarayonida esa mana shu sayt orqali o'yin tashkil etiladi. Proyektor yordamida katta ekranda savol ko'rsatiladi (2-rasm). Talabalar savolning javobini qo'llaridagi gadget orqali belgilaydilar (telefon, planshet, netbuk, noutbuk va h.k.) (3 - rasm). Har bir to'g'ri javob avtomatik tarzda baholanadi(4 - rasm) va ekranda kim qanday javob bergani statistika ko'rinishida berib boriladi (5 - rasm). Qizig'l, o'rganuvchilar to'g'ri javobni belgilash uchun sarf etgan soniyalariga ko'ra ballarni qo'lga kiritadilar, ya'ni to'g'ri javobni tanlagan talaba tezkorligiga ko'ra ballni qo'lga kiritadi.




2 - rasm.



3 - rasm.



4 - rasm.



5 - rasm.

Ushbu texnologiyani mashg'ulotlarda qo'llash orqali biz Jahon sog'liqni saqlash tashkilotining (JSST) o'zaro ijtimoiy masofani saqlash haqidagi yo'riqnomalariga amal qilgan bo'lamiz. Zero, 7 iyul kuni Jenevada bo'lib o'tgan brifingda JSST yuqumli kasalliklarning oldini olish va nazarat qilish bo'yicha texnik direktori Benedetta Allegransi koronavirusning havo orqali yuqishi haqida dalillar borligini ta'kidlagan.

Global dunyoda ilm-fan va ta'limgagini innovatsion rivojlanishning zamonaviy trendlari 15 dekabr, 2022 yil.

“Odamlar gavjum bo‘ladigan jamoat joylarida, yopiq va shamollatilmagan xonalar-da koronavirusning havo orqali yuqishini istisno qilib bo‘lmaydi. Qolaversa, ta’lim jarayonida raqobat muhitini yarata olamiz va talabalarni ko‘proq o‘qishga, o‘tilgan mavzular yuzasidan mustaqil izlanishga ishtiyoyqini oshirishga erishamiz.

XULOSA

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash kerakki, har qanday vaziyatda ham ta’lim-tarbiya jarayonida sustkashlikka yo‘l qo‘yib bo‘lmaydi. Shunday ekan, har bir mutaxassis karantin qoidalariga amal qilgan holda o‘z darslarini tashkil etishga va multimedia texnologiyalaridan foydalangan holda ta’lim sifatini yaxshilashga intilmog‘i darkor. Multimedia texnologiyalarining baholash jarayoniga tatbiq etilishi o‘qitishning muhim tarkibiy qismi bo‘lib, bu talabalarga o‘z qobiliyatlarini o‘rganishga yordam beradi. Agar talabalar darsdagi faoliyatini tahlil qila olsalar, kuchli va zaif tomonlarini tushuna olsalar, ular dars materialini tushuna oladimi yoki yo‘qmi, buni tezda aniqlash mumkinBu ularga ijobiy turtki beradi, o‘z oldiga qo‘yan maqsadlariga erishish va o‘z sohasida mukammallikka erishish uchun ilhomlantiradi. Ularning kurslardagi natijalarini bilish o‘z-o‘zini baholash shakliga olib keladi, bu ularga yanada qattiqroq ishlashga imkon beradi va shu bilan ularning sifati va darajasini, shuningdek, dars samaradorligini sezilarli darajada oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Xodjimuratova Malika Valievna¹,Umarxo‘jaeva Hilola Sirojiddinova², “The Importance of Authentic Materials in Increasing The Effectiveness of Teaching Foreign Languages: In The Example of Teaching English”, The American Journal of Social Science And Education Innovations, vol. 2, pp. 376-379, 2020.

<https://doi.org/10.37547/tajssei/Volume02Issue07-50%20>

2.Malika Xodjimuratova, & Umarxo‘jayeva Hilola Sirojiddinovna. (2022). THE IMPORTANCE OF WEB APPLICATION BASED ASSESSMENT IN TEACHING FOREIGN LANGUAGES. American Journal of Interdisciplinary Research and Development, 4, 54-60. <http://ajird.journalspark.org/index.php/ajird/article/view/53>

3.Olga A. Koryakovtseva¹ , Julia I. Doronina² , Tatiana M. Panchenko³ , Irina S. Karabulatova⁴ , Zishana M. Abdullina⁵ “Research of Category “Motivation” as a Basic Tool of Personnel Management” International Review of Management and Marketing, 6(S1) pp. 293-299, 2016.

4.<https://www.unicef.org/uzbekistan/uz/covid19-birdamlik-jamg%E2%80%98armasi>

5.<https://kun.uz/uz/news/2021/01/23/nurmat-otabekov-fevral-oyida-karantin-chechkovlari-qayta-tiklanishiga-oid-xabarlarg-a-izoh-berdi>

6.<https://kahoot.com/schools/distance-learning/>